

TABIY FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA TABIIY (SCIENCE), BIOLOGIYA, GEOGRAFIYA DARSLARIDA BARKAMOL AVLODGA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

M.Sharopova

Farg'ona viloyati PYMO`MM metodik xizmat ko`rsatish bo`limi biologiya fani metodisti

Yusufjonova Navbahor

Farg'ona shahar, 30- o`rta ta`lim maktabi
biologiya fani o`qituvchisi (916622571) I-toifali
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15165341>

Mavzuning annotatsiyasi.

Bugungi kunda ilm-fan, texnika, texnologiya va ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanib borayotganligi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini oshirishga asos bo'lgan talablarni qayta ko'rib chiqib, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etishni talab etmoqda.

Maktablarda o'qitilayotgan tabiiy, shu jumladan, biologiya fani o'zida oliyjanob fazilatlarni mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda benihoya katta ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. 4 k, "Buni qanday qo'llash mumkin", Qulf va kalit Metodi, Loyihalash, "Biologik fotosuratni o'qish" metodi, Do'st izlayman" metodi.

Tayanch tushunchalar:

Fanlararo bog'lanish, Biologiya, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, kimyo, adabiyot, tarix, fizika, ekologiya, tibbiyot, ekologiya", «global ekologiya», «kimyoviy ekologiya», «matematik ekologiya».

Bugungi kunda insonning tabiatga bo'lgan munosabati muammosi eng dolzarb muammolardan biridir. Har kuni havo, suv havzalari, o'rmonlar va boshqa ekotizimlar tobora ifloslanmoqda, o'simliklar va hayvonlar yo'q bo'lib ketmoqda va bu muammolarning barchasi insonning tabiatga noto'g'ri munosabati tufayli ro'y bermoqda va buni ongli ravishda qiladimi yoki yo'qmi muhim emas. Shuning uchun ham yosh avlodda ekologik madaniyatni tarbiyalash zamonaviy jamiyat uchun juda muhim vazifadir. Shu bois, o'quvchilarni ona yurtining tabiati bilan tanishtirish uchun sharoit yaratish zarur. Bunday sharoitlarni yaratish mumkin qo'shimcha ta'lim chunki o'quvchilar berishi mumkin tadqiqot ishi vatan tabiati bilan tanishishga katta e'tibor.. Shunday qilib, bolaning ona yurtining tabiati bilan tanishish jarayoni juda samarali va samarali bo'ladi.¹

Endilikda O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021-2022 o'quv yilidan boshlab 1-6 sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan Tabiiy (SCIENCE) fanlar joriy etildi. Tabiiy (SCIENCE) fanlar ayni vaqtda o'qitib kelinayotgan «Ekosistema modellarini yasash», «Toza ichimlik suv olish» 7- sinf Biologiya darsligida «Ekosistemalar. Biosfera» mavzusi, 11-sinf biologiya «Ekologiyaning rivojlanishi, bo'limlari va metodlari» 7- sinf Geografiya «Yer yuzi aholisi va uning tabiatga ta'siri» mavzularida ekologik daqiqa orqali o'quvchilarda ekologik loyihalarni yaratishni o'rgatiladi. Yuqori sinflarda esa 4ta alohida fanlar, ya'ni geografiya, biologiya, fizika (6-sinfdan boshlab), kimyo (7- sinfdan boshlab) fanlarini o'zida birlashtiradi.

Fanlararo bog'lanish, Biologiya, iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, kimyo, adabiyot, tarix, fizika, ekologiya, tibbiyot.

¹"Eko-maktab": maktab o'quvchilariga ekologik ta'lim berish loyihasi. Ekologiya loyihalari

Suv 2 xil holatda ifloslanadi:

1. Tabiiy: tabiiy ofatlar, shamol, dovul, yashin va sellar, kosmik changlar, vulqonlarning otilishi, o'simlik va hayvonlarning o'lishi va chirishi sabab bo'ladi.

2. Sun'iy: sanoatning turli tarmoqlari, neft mahsulotlari, kimyoviy o'g'itlar va chiqindilar, maishiy kommunal shaxsiy xo'jalik chiqindilari sabab bo'ladi.

Bizning vazifamiz birinchidan suvning ifloslanishini oldini olish, ikkinchidan iflos suvni tozalash. Suv shunday mo'jizaki, u o'zini-o'zi tozalash xususiyatiga ega.


"To'rtburchak" metodi

Metod shartlari: Sinf xonasini 4 ta burchagini raqamlab olamiz. Xohlasangiz mavzuga mos so'zlar bilan nomlang. So'ngra 4 ta o'quvchini chiqaramiz. Va o'qituvchi o'zi biror bir burchak raqamini yoki nomini o'ylaydi. O'quvchilar 4 ta burchakni egallab olishadi. Kim o'qituvchi o'ylagan burchakka tushib qolsa, " tuzoqqa tushadi" , ya'ni endi o'qituvchi bergan savolga javob berishi kerak bo'ladi. Savolga javob bera olmagan o'quvchi o'yinni tark etadi. Oxirida qolgan o'quvchi g'olib bo'ladi.

Metod vazifasi: Darsning qiziqarli o'tishini ta'minlaydi, o'quvchilardagi zerikishni oldini oladi. Mavzuga kirishib ketishni oshirishi ham mumkin. O'quvchini hozirjavob bo'lishga ham undaydi.

Qaysi darslarda foydalaniladi?

Xohlagan fan o'qituvchisi, xohlagan darsda foydalana oladi, muhimi kreativ bo'lish. Aqlli va izlanuvchan o'qituvchi teran mulohaza qila oladi.



1. "3-2-1" Usuli: Dars yakunida qayta aloqa olish

Dars oxirida o'quvchilarga quyidagi savollarga javob berishlarini so'rang:

3 ta asosiy narsa – Bugun darsda nimalarni o'rgandingiz?

2 ta savol – Sizga hali ham tushunarsiz bo'lgan ikkita narsa nima?

1 ta asosiy fikr – Sizni eng hayratlantirgan yoki qiziqtirgan bitta g'oya nima?

Foydasi: Bu usul o'quvchilar bilimini mustahkamlash va o'qituvchiga darsning samaradorligini baholash imkonini beradi.

Fanlararo bog'lash



Javob. Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.

ekologik ongni tarbiyalab, ekologik madaniyatni yaratish, antropoekologiya ta’limi tizimini shakllantirish va ommaviy axborot vositalari ishini faollashtirish.²

O’quvchini yutuqlari ilmiy izlanishlari yaratilgan ekologik loyiha, mantiqan to’g’ri ifodalangan, ekologik atamalarning lug’aviy ma’nosini ochib beriladi. Biologiya, kimyo, fizika fanlaridan maktab darsliklari, internet resurslaridan foydalanib keys topshii’giga yechim topadilar.

Keys topshirig’i

Buzilgan jo’mrakdan bir sutkada isrof bo‘ladigan suvning oilangiz, mamlakat uchun keltiradigan iqtisodiy, ekologik zararini o’rganib chiqing



Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:

Biologiya, kimyo, fizika fanlaridan maktab darsliklari, internet resurslari. Tinglovchilar uchun ko’rsatmalar:

1. Keysning mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko’proq dahldor bo’lgan omil (yoki ikkita omil) ni ajrating
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga harakat qiling.

² Tanlov o’quv moduli bo’yicha o’quv-uslubiy majuma Toshkent – 2017 Shaxmurova g. -TDPU —biologiya o’qitish metodikasi kafedrası professorı, b.f.d. Raxmatov u. - TDPU —Biologiya o’qitish metodikasi kafedrası katta o’qituvchisi Xo’janazarov O’. - TDPU —botanikal kafedrası dotsenti, b.f.n. Tog’aeva G. - TDPUHXTXQTUMOHM —Tabiiy va aniq fanlar ta’limil kafedrası katta o’qituvchisi

5. O'z fikringizni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Tinglovchilar keys mohiyatini u bilan tanishish orqali kichik guruhda muhokama qilishadi.

2. Tinglovchi kichik guruh a'zolari bilan hamkorlikda muammoni hal etishga zamin tayyorlaydigan omillarni aniqlaydi.

3. Muammoni hal etishga imkon beradigan eng muhim jihatlari ajratib olinadi.

4. Kichik guruh a'zolari umumiy fikr asosida eng muhim omillarni bayon etadi.

5. Kichik guruhlarining fikrlari tahlil etiladi va umumiy xulosa yasaladi.³

Yer sayyorasi - bu bizning umumiy uyimiz, unda yashaydigan har bir inson o'z qadriyatlari va boyligini saqlab, unga g'amxo'rlik qilishi va hurmat qilishi kerak. Maktab o'quvchilarining tabiatni muhofaza qilish istagini uyg'otish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha muayyan chora -tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma berish.

“Rangli Qalam” Metodi – Individual Yondashuv

O'quvchilarni uch guruhga ajratib, ular dars materiallarini qanday tushunganiga qarab rangli qalam bilan yozishlarini so'rang:

Qizil – Tushunmadim, tushuntirish kerak.

Sariq – Qisman tushundim, lekin hali ham savollarim bor.

Yashil – Hammasi tushunarli, davom etamiz! Foydasi: O'qituvchi qaysi mavzularni yana tushuntirish kerakligini tezda aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Tilovov T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. Qarshi. Nasaf, 2003.
2. G'ulomov .N. Inson va tabiat. T.O`qituvchi, 1990.
3. Otaboyev Sh. Nabiyev M. Inson va biosfera. T. O`qituvchi, 1995.
4. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T. O`qituvchi, 1994.
5. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. T. O`qituvchi, 1997.
6. Ergashev A., Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T. O`qituvchi, 2005.
7. Ergashev A. Umumiy ekologiya. T. O`zbekiston, 2003.
8. Tursunov X., Raximova T. Ekologiya. T. 2006.
9. Maktabda tabiiy fanlarni o`qitish bo'yicha qisqa muddatli o`quv kursi Toshkent 2022
10. Shaxmurova g. -TDPU —biologiya o`qitish metodikasi|| kafedrası professorı, b.f.d. Raxmatov u. - TDPU —Biologiya o`qitish metodikasi|| kafedrası katta o`qituvchisi Xo'janazarov O'. Tanlov o`quv moduli bo'yicha o`quv-uslubiy majuma Toshkent – 2017
11. Ziyonet
12. Refarat.uz

³ Tanlov o'quv moduli bo'yicha o'quv-uslubiy majuma Toshkent – 2017 Shaxmurova g. -TDPU —biologiya o`qitish metodikasi|| kafedrası professorı, b.f.d. Raxmatov u. - TDPU —Biologiya o`qitish metodikasi|| kafedrası katta o`qituvchisi Xo'janazarov O'. - TDPU —botanikal kafedrası dotsenti, b.f.n. Tog'aeva g. - TDPUHXTXQTUMOHM —Tabiiy va aniq fanlar ta'limil kafedrası katta o`qituvchisi